

TALABALARDA DIOLOGIK NUTQ ORQALI IJODIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Kaziyeva Turg'unoy Tursunbayevna

Andijon davlat pedagogika instituti p.f.f.d. dotsent, Maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning diologik nutq orqali ijodiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishga oid ma'lumotlar yoritilgan bo'lib, kelajakda mutaxassis faoliyati uchun kerakli nutq madaniyati ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: diologik nutq, munosabat, notiqlik, fikrlash, ma'lumot, ong, adabiyot, tahlil, tavsir, ko'nikma, kreativlik.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ОБСУЖДЕНИЯ

Казиева Тургуной Турсунбоевна

Андижанский государственный педагогический институт, заведующий кафедрой дошкольного образования

Аннотация: В данной статье освещается информация по совершенствованию навыков творческого мышления студентов посредством диалогической речи, а также раскрываются пути формирования навыков речевой культуры, необходимых для профессиональной деятельности в будущем.

Ключевые слова: диалогическая речь, отношение, красноречие, мышление, информация, сознание, литература, анализ, интерпретация, мастерство, творчество.

IMPROVING STUDENTS' CREATIVE THINKING SKILLS THROUGH DISCOURSE

Kaziyeva Turg'unoy Tursunbayevna

Andijan State Pedagogical Institute, Head of the Department of Preschool Education

Annotation: In this article, information on improving students' creative thinking skills through dialogic speech is highlighted, and ways to form speech culture skills necessary for professional work in the future are revealed.

Keywords: dialogue speech, attitude, eloquence, thinking, information, consciousness, literature, analysis, interpretation, skill, creativity.

Kirish. Ona tili darslarida dialogli o'qitishni tashkil qilish bir qancha imkoniyatlar beradi. Ayniqsa, matn bilan ishlashda, uni tushuntirishda dialog qulaylik tug'diradi. Matnning turlarini o'rganishda dialog o'rni beqiyosdir. Shuningdek, xalqning qalbini uyg'otishda, unga o'zligini anglatishda, buyuk maqsadlar bilan yashashga o'rgatishda, tarixiy shaxslar hayotini o'rganishda bu imkoniyatdan foydalanish mumkin bo'ladi. Jumladan, Bobur Mirzodek tarixiy shaxslar hayotidan ibrat olib yashashga o'rgatish muhimdir. Boburning Agra shahrida olib borgan obodonlashtirish ishlari birlan bir vaqtda xalqqqa bo'lgan mehri muhabbati va malika Bayda tomonidan zaharlanish borasidagi quyidagi epizod diqqatga sazovordir. "Hindni obodu qudratli qilmoq orzusidamiz. Bizga hamklru hamnafas hind beklari, fuzalolari, hunarpehalari ko'p. Bizni zaharlab o'ldirmoqchi bo'lgan bu makkor xonim uchun eng eng og'ir jazo shuki, biz mana tirikmiz... Malika bizning bundan keyingi zafarlarimizni ham ko'rsin. Yomonlikka yaxshilik qilish mard kishining qo'lidan kelishiga amin bo'lsin"

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ko'rinib turibdiki, bunda ruhan bukilmalik, hayot sinovlariga dosh berish holati tushuniladi. Shu asosda dialog o'tkaziladi: *Avvalo, talaba berilgan materialni diqqat bilan o'rganib chiqishi, matndagi asosiy mazmunni ilg'ay olishi, mazmunini tushuna olishi va shu asosda tushunganlarini tushuntira olishi, kerak bo'ladi. Talaba bunday matni o'rganishda qaysi so'zlarni ishlatish o'rinni ekanligi, tinglovchi diqqatini jalb etadigan jihatlariga e'tibor qaratishi lozim. Uni o'qishda talaffuzga e'tibor beriladi. Bunday matnlar ijodkorlikka da'vat etadi va talabaning tildagi so'zlarni to'la his qilishga o'rgatadi, qiziqishlarini yanada kuchaytiradi. Guruhning barcha a'zolariga berilgan bu topshiriqlar bir-biriga o'xshashi mumkin, lekin ular so'z ishlatish, fikrlar ketma-ketligi, dalillar keltirilishi va ularning tinglovchilarga etkazmoqchi bo'lgan fikrlari nuqtai nazaridan bir-

biridan farq qilishi mumkin. Har bir talaba munosabat bildiradi, guruh a'zolari o'rtasida o'z fikrlarini o'rtoqlashadilar. Nutqning mazmuni va shakliy jihati, undagi ishlatilgan grammatik vositalarning qo'llanilishini tahlil qiladilar. Matn va matn yuzasidan berilgan savollar asosida dialog tayyorlanadi; bunda talabalar, o'zlari eshitgan, bilgan matnlar bo'yicha savol javob o'tkazadilar, shuningdek, mavzu yuzasidan o'z munosabatlarini ham bayon etadilar. Shundan so'ng dialogik nutq ustida ishlash yuzasidan topshiriqlar beriladi. Keyingi bosqichlarda dialogik nutq tayyorlash bo'yicha matnlarni murakkablashib boradi, eng oxirgi bosqichlarda esa ancha murakkablashtirilgan matnlar ustida ishlanadi. Ana shunday murakkablashtirilgan matnlar keyingi bosqichlarda beriladi. Bunday matnlar O'zbekiston tarixi, madaniy merosi bilan bog'liq lingvomamlakatshunoslik mavzularida, talabalarning tanlagan kasb yo'nalishlariga doir bo'lishi mumkin. Shuningdek, matnlar yuzasidan bir necha topshiriqlar beriladi.

Tahlil va natijalar. Nutq tayyorlash bo'yicha O'zbekistonning tarixiy-madaniy merosi mavzusida berilgan matnlardan birida quyidagi topshiriqlar berilgan:

1. O'zbekistonning madaniy merosi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing. Madaniy meros namunalaridan biri haqida so'zlab bering.
2. O'zbekistonning qaysi me'moriy obidalari «Butunjahon ma'naviy merosi ro'yxati»ga kiritilgan?
3. Maqolaga ilova qilingan suratni sharhlang.

Bu matnlarda berilgan topshiriqlar asosan quyidagilarni qamrab oladi: 1) matnning asosiy mazmunini tushunish; 2) matn yuzasidan savollarga javob berish; 3) matnning mazmunini qisqacha bayon etish; 4) matnni birinchi shaxs nomidan yoki o'zlashtirma nutq sifatida so'zlab berish; 5) matn yuzasidan o'z fikrlarini ifodalash, o'z munosabatini bildirish; 6) matnga qisqacha annotatsiya yozish; 7) matnni davom ettirish yoki uni dalillar, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitish. Bu topshiriqlarni bajarish davomida talabaning monologik nutqi yanada boyib, sayqallanib boradi, bu esa ta'limda ko'zda tutilgan maqsadni amalga oshirishga yordam beradi. Talaba har bir matnni namuna sifatida qabul qiladi va shunga o'xshash mavzularda fikrlash, bahs-munozaralarda ishtirok etishga harakat qiladi. Bunday matnlar talabaning nutqi uchun tayanch manba bo'ladi. Til o'rganishning keyingi bosqichlarida o'rganiladigan bu kabi matnlarga ko'ra talabaning monologi bir matn asosida emas, balki bir necha matnlar asosida yoki ona tili va birinchi boshqa tillarda o'qigan kitoblari, ko'rgan filmlari taassuroti natijasida tuzilishi mumkin. Albatta, bu ma'lum bir reja, ketma-ketlik asosida amalga oshirilgandagina, monolog mazmunli va mantiqiy bo'ladi. Talaba boshqa fanlarda olgan bilimlaridan ham foydalanishi mumkin. Aytish mumkinki, fikrni ifodalash, uni nutqning monolog yoki dialog ko'rinishida amalga oshirish o'quv-pedagogik jarayon sifatida yuz beradi va uni bir necha bosqichga bo'lishimiz mumkin:

1. Mavzu bo'yicha so'z, so'z birikmalarini tanlash jarayoni.
2. Fikrni jamlash va ketma-ketlikda bayon qilishni rejalashtirish.
3. Gaplarni tuzishda grammatik qoidalarni yodda tutish, birinchi navbatda egalik, kelishik, shaxs-son qo'shimchalariga e'tibor berish.
4. Fikrni ifodalash, o'z munosabatini bildirish.

Muhokama. Fikrni ifodalash, va grammatik materialigina etarli emas, tilning ekstralingvistik vositalari, nutq tempi, xabar, darak, buyruq yoki so'roq mazmunini ifodalab bera olish, sekinlashish, tinish holatlari, tilda mavjud bo'lgan o'ziga xos imo-ishoralardan ham foydalana olish fikrni suhbatdoshga, tinglovchilarga to'liq etkazib berishda katta rol o'ynaydi.

Shunday qilib, amaliy mashg'ulotlar jarayonida dialogik nutq bo'yicha olib boriladigan mashqlarni asosan ikki guruhga ajratishimiz mumkin. Birinchisi, til materiali bo'yicha bajariladigan oddiy mashqlar, gap qurilishi yuzasidan so'zlarni, jummalarni va gaplarni to'g'ri tuzish va uni tushuntirish mumkin bo'ladi. Bunda nutqdagi gaplarni tuzish bo'yicha xatolarni to'g'rilash ustida mashqlar bajariladi. Germenevtikaning maqsadi talqin qilishning turli metodlarini amalda qo'llash orqali haqiqiy mazmunni tushunish va yaratishdan iboratdir. Chunki germenevtik metodologiyaning nazariy asoslarini tahlil qilish, bugungi kunda talqin va tushuntirishga muhtoj bo'lgan ma'naviy merosimizni tushunishga zamin bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, bunday mashqlarda o'z dialogli suhbatni yo'lga qo'ygan talabaning aytganlarini eslab qolish va takrorlash yoki o'zlashtirma nutq sifatida so'zlab berish bu mashqlarning o'zlashtirilishini yanada mustahkamlaydi. Ikkinchi guruhga muloqot mashqlarini kiritish mumkin. Bunda biror axborotni etkazish bo'yicha mashqlar bajariladi. Chunki germenevtika insonga tushunish va tushuntirish imkonini berish bilan borliqning (bor bo'lish, mavjudlikning) muhim asosini tashkil qiladi. Zero, ma'noni tushunish va talqin qilish hayot mazmunining tayanch bo'g'inidir. Ona tili darslarini bunday tashkil qilishda tushunish yuksak darajasi amalga oshadi. Dastlabki bosqichlarda ikki yoki uch

gap yordamida tuzilgan kichik monologik nutqlar bajarilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda bu yangiliklar kattaroq matnlarga aylanib boradi, endi bu matnlarda tafsilotlar to'liq bayon etilgan, dalillar ko'paytirilgan, xulosalangan va talabning munosabati bildirilgan ko'rinishda davom etadi. Xulosa shuki, talabning nutq malakasi o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi, bunday mashqlarni davom ettirish, ko'paytirish zarur bo'ladi. Oliy o'quv yurtlari talabalarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish zaruriy masala. Albatta, bunda monologik va dialogik holatda bo'lishi mumkin. Dialog faqatgina og'zaki nutqqa oid bo'lmay, balki yozma nutqda ham o'z aksini topadi. Shuning uchun ham yozuvga oid nutqni o'rganish jarayonida asosan quyidagi bilim va malakalarni egallash talab qilinadi: 1) tinglab tushunilgan yoki o'qilgan matn mazmunidagi asosiy axborotni yozma ravishda uzata olish; 2) uzatilayotgan axborotni qisqacha yoki batafsil ifodalay olish, dalillarni qiyoslash, taqqoslash; 3) dallillarni keltira olish va ularga tavsif berish, sharhlash va ularning mazmunini birlashtirib, xulosalar berish; 4) uzatilayotgan axborot matnini tavsiflash va unga baho berish, ifodalanayotgan fikrni sharhlash, o'z munosabatini bildirish.

Ma'lumki, fikrni bayon etish ikki xil shaklda amalga oshadi: yozma hamda og'zaki. O'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr buyicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan o'quvchi egallagan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligini aniqlash;
- fikrlash, mavzuning murakkablik darajasini aniqlash (sodda, murakkab, konkret, mavhum va hokazo);
- v) tavsifning mavzuga muvofiqligini va tavsifning qiymatini aniqlash;
- g) tavsifdatilning ifodavositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasini aniqlash;
- d) imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash.

DTS o'quvchidan ona tilida fikrlash va fikrni bayon qilishning amaliy ko'nikma va malakalarini to'g'ri talab qilish uchun ona tili o'qitishning maqsadini germevntik nuqtai nazaridan to'la tushuna olishimiz, shuningdek, tushuntira olishimiz lozim bo'ladi. Chunki faylasuflar ta'kidlashicha, germevntika shunchaki metod va qoidalar to'plami emas, balki inson borlig'ining alohida ontologik ahamiyatga ega bo'lgan fenomenidir. Dialogik nutq (suhbat, intervyu) ikki xil bo'ladi, biri eposning rivoyachi yo muallif tili mavjud bo'lgan nasriy asarda rivoyachi yo muallif tili bilan birga ishlatiladi. Ikkinchisi dramada uchraydi, bunda rivo- yachi yo muallif tili va ulardagi tasviriylik bo'lmaydi, chunki dramada dramaturg o'zini chetga oladi. Goh qavs ichida beriladigan remarkalar bor, xolos. Shu sababli drama tili asl ma'nodagi dialogik nutqdir. Dialogik nutq prozada xarakterni aniqlaydi, ziddiyat va voqeani o'stiradi, o'zaro munosabatlarni qiyosiy ko'rsatadi, xarakterlarning ichki dunyo- sini ochib beradi. «Dialog ikki yoki undan ortiq personaj orasida bo'lgan suhbat, savol-javobdan iborat» U ruhiy dunyoni badiiy tahlil qilish va kashf etish, to'qnashuvni ko'rsatib, ziddiyatni rivojlantirish va xarakterni yaratish vositasidir.

«Dialogik nutq oddiy qilib aytganda, uchrashuvdir. unda doimo ikki masala, bor: murojaat va javob mavjud bo'ladi. Har bir kishining xarakter xususiyatini bilishda dialog muhim rol o'ynaydi. Jumladan,

Shahidbek bilan Anvar dialogi esa mana bunday. Shahidbek maxdum bir ko'z urishtirib oldi:

- Ya'ni siz sarmunshiylikni xohlamaysizmi? - deb so'radi. - Albatta.

- Sabab?

- Sababi shuki, - dedi Anvar, ko'zini dasturxonning allaqaysi nuqta- siga tikkan holda, - men buningday mas'ul, ayniqsa tantanali vazifalarga havaskor emasman...

Anovi - yigirma-o'ttiz yildan beri shu mansabning qayg'usida kelgan kishilar tinch yotadilar, deb o'ylaysizmi? (29-30-betlar).

Bu dialogdan Anvar xarakterining muhim qirrasini ochiladi, bu uning mansabga o'chmasligidir.

Biz germevntikani o'rganar ekanmiz, uni bilishda matndagi so'zlarni to'g'ri anglata bilish muhim hisoblanadi. Chunki tushunish inson faoliyatining ma'nolarini tushunish va o'ziga xos ma'no hosil qilish tarzida namoyon bo'ladi. Tushunish boshqa odamning «ma'nolar olami»ga kirib borish, uning fikrlari va o'y-kechinmalarini tushunib etish va ularni o'rganib, tahlil va talhlil qilish bilan bog'liq. Tushunish – ma'noni chuqur anglab etish demakdir. Mazkur jarayon o'zaro aloqa, muloqot va dialog sharoitlarida sodir bo'ladi. Tushunishni o'z-o'zini tushunishdan ajratish mumkin emas. Uni o'rganish metodik jihatdan alohida ma'no kasb etadi.*

Ra'no esa qo'qonlik kishilarga xos bo'lgan hazilkashlikka moyil kishidir. Ra'no hazilni sevadi va u juda zukko. Buni uning Anvar bilan qilgan dialogi ham ko'rsatib turadi:

- Tinchlikmi?

- Betinchlik, - dedi kulib Ra'no.

- Ayni muddao ekan bo'lmasa... Ha, aytgandek, - dedi Anvar o'tirgan supaga ishorat qilib, - bukun joy katta solingan?
- Mehmon kelar emish.
- Yolg'oning qursin, Ra'no, - dedi Anvar kulimsirab, - qanday mehmon? - Men qayoqdan bilay, qanday mehmon... Fotihaga kishilar kelar emish, deb eshitdim.
- Fotihasi qanaqa?
- Bilmasam qanaqa.
- Anvar o'ylanib yana kulimsidi.
- Sening fotihang bo'lmasin?
- Mening qanday fotiham bo'lsin: men hali tirikman.
- Teskari burma, Ra'no, balki seni erga bermoqchidirlar?
- Ra'no qizarib turdi-da, yana gapni kulgilikka oldi:
- Meni kimga berar emishlar?
- Senimi? - dedi kulib Anvar. - Seni xondan boshqa kim olsin? Ra'no qo'lidagi ukasiga qaragan holda:
- Siz shunga maslahat bersangiz... men qanday qilay! - dedi va Mansurni chaqirdi. - Tur, Mansur, ketamiz.
- Ra'noda achchiqlanish namoyishi bor edi. Anvar Ra'nodagi bu o'zgarishdan o'ng'aysizlikka tushdi:
- Ra'no, - dedi. Ra'no zinadan tusha boshlagan holda to'xtadi. - Chini ni so'zla, mehmon kelishi aniqmi?
- Mehmon kelishi aniq, ham keldi, - dedi Ra'no jiddiy. Anvar ajablandi:
- Mehmon keldi?
- Keldi.
- Anvar tevarakka qarandi:
- Qani mehmon?
- Ra'no qo'li bilan Anvarning o'ziga ishorat qildi:
- A n a mehmon.
- Anvar kuldi.
- Men mehmonmi?
- Ra'no jiddiy ravish bilan:
- Albatta, siz bizga mehmonsiz.
- Anvar yana kuldi. Biroq. Uning bu so'nggi kulishida kuchlanish bor edi: - Men senga mehmonmi? Ra'no kulimsib er ostidan Anvarga qaradi va qo'lidagi xarxashalana boshlagan bolani ovutish uchun tebrandi:
- Bilmasam...
- Ra'noning yuzidan boyagi jiddiyat yo'qolgandek edi.
- Anvar ham hazilni tashlab, chin hazilga o'tdi:
- Mehmonning qorni och, - Ra'no, - dedi, - albatta qadrlik mehmon uchun tansiqroq taom pishirgandirsiz, deb o'ylayman. Bukungi taomingiz ismini lutfan marhamat qilsangiz edi.
- Mehmonning vazifasi, - dedi Ra'no javoban, - izzati bilan o'tirish va oldiga qo'yilgan narsani maqtab-maqtab eyishdir...
- To'g'ri aytasiz, oltinbibi, - dedi Anvar, - biroq, bukungi mehmon- dorchiligingiz ham kechagidek uvra bilan bo'lsa, maqtab-maqtab, qo'lingizga qaytarib berishim ham aniqdir.
- Ra'no butun tovushini qo'yib kulib yubordi:
- Bukun qo'g'irma sho'rvaga, - dedi Ra'no kuldi ichida, - qattiq non to'g'rab eysiz, jaz o'rninga sholg'om chaynaysiz.
- Ofarin, dedi Anvar, - bu kungi mehmondorchiligingizdan qariyb mamnun bo'laturganga o'xshayman. Agar mumkin bo'lsa shuni bilsamki, bu kungi shalg'am sho'rva katta otinbibining qo'llaridan tanovul qilinadirmi yoki kichik otinbibining?
- Mehmon uchun buning farqi yo'qdir...

- Bir oz yanglishasiz, Ra'nobonu, - dedi Anvar, - chunki qo'ldan qo'lning katta farqi bor.
- Farqi bo'lsa... Bu kun kichik otinbibining qo'llaridan shalg'am sho'rva tanovul qilasiz.
- Bu holda avf etasiz, Ra'nobonu... Basharti kichik otinbibining qo'llaridan tanovul qilaturgan bo'lsak, shalg'am sho'rva emas, bizning uchun qush sho'rvadir.

Ko'rinib turibdiki, ushbu dialog orqali har ikki shaxsning ma'naviy olami namoyon bo'lmoqda. Matndagi har bir so'zning Anvarning ham, Ra'noning ham so'zamol ekanligini anglash mumkin bo'ladi. Kulishida kuchlanish bor edi, kulimsib er ostidan Anvarga qaradi, jiddiyat yo'qolgandek edi, tansiqroq taom pishirmoq, Anvar ham hazilni tashlab, chin hazilga o'tdi, jaz o'rniga sholg'om chaynaysiz, katta otinbibining qo'llaridan tanovul qilinadirmi yoki kichik otinbibining? qo'ldan qo'lning katta farqi bor.

Xulosa va takliflar. Matnda berilgan so'z va gaplarning ma'nosini tushunish ajratilgan so'zlarning ma'nosini izohlash, ta'riflash maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi matnni tushuntirish uchun uni, avvalo, ya'ni mohiyatni bilishi, o'zi tahlil qila olishi zarur bo'ladi.

Ma'lumki, "Tushunish va tushuntirish bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ammo tushunish tushuntirishni, ya'ni o'rganilayotgan hodisani qonunga va sababga bog'lashni nazarda tutmasligini unutmaslik kerak. Bundan tashqari, tushunishni tushuntirishga qarama-qarshi qo'yish, shuningdek inson bilish faoliyatining har qanday sohasida faoliyat ko'rsatuvchi va bir-birini to'ldiruvchi bu ikki tadqiqot protseduralarini bir-biridan ajratish mumkin emas. Saroydagi yaxshi va yomon odamlar o'rtasidagi ziddiyat va kurash bu romanda dialog rolini bir muncha oshirdi. Romanda kulminatsiya dialogga to'g'ri kelganligi bejiz emas. Dialogdagi bunday holat har bir o'quvchi talabani, o'ylashga, fikrlashga chorlaydi.

Chunki fikrlashda fikrlash..... yoziladi

Talabalarga dialogli nutqni tashkil etish va uni matn holida ifoda etishda umumiylik xos hodisa ekanligini tushuntirish kerak, chunki u ijobiy obrazlarning ijobiy tomonini, salbiy obrazlarning yanada salbiyligini ko'rsatib beruvchi omil isoblanadi. Demak, dialog odatdagi suhbatdan farqli o'laroq, siyqasi chiqqan so'zlardan iborat bo'lmasligi kerak. Undan har bir obrazning maqsadi, dunyoqarashi, tafakkur tarzi anglashilib turishi zarur.

K. X. Delokarov va F. D. Demidov ta'kidlashicha, dialog, o'zaro bir-birini tushunish va sabrlik haqidagi g'oyalarni samarali va "ishlovchi" qilish uchun ularni mas'uliyat, qiziqish, ochiqlik va ob'yektivlik omillari bilan bog'lash zarur. Ochiqlik va ob'yektivlik hech kim mutloq haqiqatga ega emas va faqatgina hamkorlikdagi dialog narsalarning haqiqiy tabiatini bilishga yordam berishini anglashni taqozo etadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov P. Yulduzli tunlar // www. ziyo.u
2. Bakiyeva G.X., Karayeva B.X., Korshunova E.N., Krayeva I.A, Teshabayeva D.M., Frolova G.M. Uzbekskiy yazik dlya stran SNG. – M.: FGBOU VPO MGLU, 2012. –S. 184-190.
3. Solijonov Y. Dialog qurilishi va uning elementlari. - O'zbek tili va adabiyoti, 2010, 2-son, 8-bet.
4. Delokarov K. X. Demidov F. D. Yangi paradigma izlab. 281 b.
5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. – B. 35-36.